

## INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRUVCHI XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA ULARNING FAOLIYATI TAHLILI

Xandamov Keldiyor

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521110>

**Annotatsiya.** Xalqaro moliya institutlari jahon iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlarga mablag' ajratish va kredit berish bilan shug'ullanadilar, jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradilar. Ushbu maqolada investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi xalqaro moliya institutlari va ularning faoliyati xususida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** Xalqaro moliya institutlari, kredit liniya, milliy iqtisodiyot, investitsiya fondi.

### ANALYSIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS FINANCING INVESTMENT PROJECTS AND THEIR ACTIVITY

**Abstract.** International financial institutions play a major role in the world economy. They provide funds and loans to various countries, help develop world trade and stabilize the financial system. This article talks about international financial institutions financing investment projects and their activities.

**Key words:** International financial institutions, credit line, national economy, investment fund.

### АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ, ФИНАНСИРОВАННЫХ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ, И ИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** Международные финансовые институты играют важную роль в мировой экономике. Они предоставляют средства и кредиты различным странам, помогают развивать мировую торговлю и стабилизировать финансовую систему. В данной статье рассказывается о международных финансовых институтах, финансирующих инвестиционные проекты, и их деятельности.

**Ключевые слова:** международные финансовые институты, кредитная линия, национальная экономика, инвестиционный фонд.

### KIRISH

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'ren tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xusan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiyi slohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsiya jarayoni, davlatning investitsiya siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar

investitsiyaviy faolligiga bog'liq. Mustaqillikning qisqa davrida investitsiyaviy faollikni ta'minlash, kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsiya faoliyatini tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

**Xalqaro moliya institutlari** - xalqaro moliya sohasida davlatlararo (xalqaro) bitimlar asosida tashkil etilgan institutlardir.

**Quyidagilar xalqaro moliya institutlari ishtirokchilari hisoblanadi:**

1. davlat;
2. nodavlat tashkilotlar.

1. Juhon iqtisodiy rivoji uchun xalqaro moliya institutlari bajaradigan funksiyalar quyidagilardan iborat.

1. jahon iqtisodiyotining holati, tendensiyalari va rivojlanish omillari tahlil qilish;
2. jahon iqtisodiyotini tartibga solish, xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida global valyuta va fond bozoridagi operatsiyalarni amalga oshirish;
3. investision faoliyat amalga oshirish (xalqaro va ichki milliy loyihalarga yo'naltirilgan kreditlar berish);
4. davlat loyihalarni kreditlash amaliyotlari;
5. xalqaro ko'mak dasturlarini moliyalashtirish;
6. ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish;
7. xayriya faoliyati amalga oshirish.

2. Bugungi kunda qanday xalqaro moliya institutlari faoliyat ko'rsatmoqda?

**Xalqaro valyuta jamg'armasi 1945 yilda tashkil topgan bo'lib**, xalqaro valyuta tizimining rivojlanishini hamda 189 ta a'zo mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro valyuta fondi to'lov balansining joriy yoki potensial qiyinchiliklariga dueh kelayotgan a'zo davlatlar xalqaro zaxiralarini tiklashga, milliy valyutalarini barqarorlashtirishga, import uchun to'lovlarini davom ettirishga va kuchli iqtisodiy o'sish uchun sharoitlarni tiklashga kreditlar ajratish bilan asosiy muammolarni bartaraf etadi.

**Jahon banki guruhi** vazifalari kengayishi bilan turli vaqtda tashkil etilgan va funksional, tashkiliy va hududiy jihatdan birlashgan besh tashkilotni o'z ichiga oladi, jumladan:

- *Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB);*
- *Xalqaro rivojlanish assotsiasiyasi (XRA);*
- *Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK);*
- *Investisiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA);*
- *Investisiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM).*

*Jahon banki guruhining asosiy maqsadi rivojlanayotgan va iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish hisoblanadi. Ushbu guruh tarkibiga kiruvchi har bir institut o'z resurslaridan mustaqil ravishda va o'zлari belgilangan sharoitda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga hissa qo'shadigan investisiya loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha faoliyat olib boradi.*

**Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) Bretton-Wud konferensiyasi qaroriga asosan 1944 yilda tashkil etilgan bank.** Global rivojlanish tashkiloti bo'lib, Jahon banki guruhining missiyasini qo'llab-quvvatlaydigan, o'rtacha daromadli va eng past darajadagi

daromadli mamlakatlarga kreditlar, kafolatlar, xatarlarni boshqarish bo'yicha mahsulotlar va maslahat xizmatlarini taqdim etuvchi eng yirik bank hisoblanadi.

**Xalqaro rivojlanish assosiasiyasi (XRA)**ga 1956 yil asos solingan bo'lib, dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarga foizsiz kreditlar va grantlar taqdim etadi. YalMning qiymati aholi jon boshiga 835 AQSh dollardan oshmaydigan mamlakatlargina XRA dan qarz olish huquqqa ega. XRA 30-40 yillik muddatga va dastlabki o'n yillik imtiyozi davr (belgilangan muddatning asosiy qarzini to'lamaslik imtiyozi) bilan foizsiz kreditlar taqdim etadi.

**Investisiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tarmoqli agentlik (IKKA)** o'z faoliyatini 1988 yilda boshlagan va rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish, siyosiy xatarlardan sug'urtalash va xususiy investorlarga kafolatlar berish, shuningdek maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish uchun tashkil etilgan. IKKA kafolati investorlarni mablag'lar harakatini cheklashdan, musodara qilinishidan, harbiy va fuqaroviylar tartibsizliklardan va shartnoma shartlarini buzish xavflaridan himoya qiladi.

**Investisiyaviy nizolarni hal qilish xalqaro markazi (INHXM)**ga 1966 yilda asos solingan bo'lib, davlatlar va xususiy investorlar o'rtaisdagi nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro arbitraj tashkiloti (xalqaro investisiyaviy arbitraj) hisoblanadi.

**Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB)** 1991 yildan buyon faoliyat yuritib, ochiq bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishni, shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida xususiy va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi institutdir. Xususiy bank sektor bilan hamkorlikka e'tibor qaratgan holda, loyihalarga sarmoyalalar kiritadi, davlat siyosati masalalari bo'yicha muloqot olib boradi va innovatsiyalarni rivojlantirish, barqaror va ochiq bozor iqtisodiyotini barpo etish uchun texnik yordam ko'rsatadi.

**Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB)** 1966 yilda tashkil etilgan bo'lib, u mintaqalarga to'g'ridan-to'g'ri kreditlar va texnik yordamlar ko'rsatish orqali Osiyoning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. OTB rivojlanayotgan a'zo mamlakatlardagi xususiy korxonalarga kapital qo'yilmalar va kreditlar ajratish orqali to'g'ridan-to'g'ri yordam beradi. OTB tegishli mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga samarali hissa qo'shadigan va mamlakat strategiyasiga muvofiq qashshoqlikni kamaytirishga eng katta ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtiradi.

**Osiyo infratuzilma investisiya banki (OIIB)** Osiyodagi murakkab infratuzilma ehtiyojlarini qondirish maqsadida davlatlarni birlashtirish uchun tashkil etilgan ko'p tomonli moliyaviy institutdir. U o'z faoliyatini 2014 yil yanvar oyida boshlagan va xozirgi paytda unga 57ta mamlakat a'zo. OIIB elektr va energetika, transport va telekommunikasiya, qishloq infratuzilmasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv ta'minoti va kanalizasiya, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda shaharlar va logistikani rivojlantirish sohalarida ishonchli va barqaror loyihalarni moliyalashtirishni taklif etadi.

**2008 yilda tashkil topgan Moliyaviy ommaboplilik al'yansining (MOA)** maqsadi moliyaviy ommaboplilik bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirish orqali moliyaviy resurslardan foydalana olmaydiganlar uchun tegishli moliyaviy xizmatlar sifatini va ularidan foydalanish imkoniyatini oshirishdan iborat. Dunyoning 95 rivojlanayotgan mamlakatlarining tartibga soluvchi moliyaviy tashkilotlarini birlashtiradi. Al'yans davlat moliyaviy tizimining iqtisodiy

rivojlanishiga hissa qo'shadigan muhim siyosiy sohalarda a'zo mamlakatlarga grantlar va texnik yordam ko'rsatadi.

**Islom taraqqiyot banki (ITB)** - islomiy moliyalashtirishga yo'naltirilgan ko'p tomonlama rivojlanish banki 1975 yilda tashkil topgan. U a'zo mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish loyihamalarini moliyalashtiradi. Bank shariat qonunlari va tamoyillariga asoslanib, a'zo davlatlar va butun dunyo muslimon jamoalarida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali o'z faoliyatini amalga oshiradi.

**Islom taraqqiyot banki guruhiqa quyidagi tashkilotlar kiradi:**

**Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (XSRIK), 1999 yilda** tashkil etilgan bo'lib, xususiy sektorga moliyaviy xizmatlarni taqdim qiladi. U global hamkorlik platformasida kredit liniyalar, maslahatlar, aktivlarni boshqarish, investisiyaviy bitimlar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish uchun strategik hamkorlikni ta'minlaydi.

Moliyalashtirish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi, jumladan: kapital va foyda olishda ishtiroy etish, lizing, qisman qayta sotish va boshqalar.

**1999 yilda asos solingan Xalqaro Islom savdo va moliya korporatsiyasi (XISMK)** Islom taraqqiyot bankining avtonom bo'linmasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi butun Islom dunyosidagi odamlarning iqtisodiy ahvoli va turmush tarzini yaxshilash maqsadida savdoni rivojlantirish dan iborat.

**1977 yilda tashkil etilgan Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasining (XQXRJ)** asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish va kam ta'minlanganlarning ovqatlanish holatini yaxshilash uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishdan iboratdir. Jamg'arma kam ta'minlangan qishloq uy xo'jaliklarining ovqatlanishini yaxshilash, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va daromadlarni ko'paytirishga sharoit yaratish maqsadida mablag'larni safarbar qiladi.

Xulosa qilib aytganda milliy iqtisodiyotga xorijiy banklarning kredit liniyalarini faol jalb qilish raqobatbardosh mahsulotlarga, zamonaviy ishlab chiqarishga yuzma-yuz kelish, talabga muvofiq sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidir.

## REFERENCES

1. Hogan J.E., Lemon K.N., Libai B., 2014. Quantifying the ripple: word of mouth and advertising effectiveness. *J. Advert. Res.* 44 (3), 271-280.
2. Koenig-Lewis N., Palmer A. and Moll A. 2010. Predicting young consumers' take up of mobile banking services. *International Journal of Bank Marketing*28(5):410-32. doi:10.1108/ 02652321011064917., Venkatesh, V., and F. D. Davis. 2000. A theoretical extension of the technology acceptance model: Four longitudinal field studies. *Management Science*46(2):186-204. doi:10.1287/ mnsc.46.2.186.11926.
3. Angelidi M.S., Karimov N.G. Investitsiyalarni loyihamiy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish. - T.: «TMI», 2005. - 96 b.